

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-iyun oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **9703,2 mlrd.so'mni**, o'sish **25,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **28,5 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **73,7 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **20,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda korxonalar tomonidan 9703,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,6 % ni tashkil etdi.

- Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 97,5 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalar ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 1,8 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



davomi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9456,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 97,5 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari

tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 172,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.





davomi

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 7147,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 128,5 %, jami sanoatdagi ulushi esa 73,7 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

1-diagramma



Yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2-diagramma



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 58,6 % ulushini), Andijon (18,2 %), Honobod shaharlari (4,2 %), Andijon (2,4 %), Shahrixon (2,4 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




davomi

2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

3-diagramma




Shu bilan birga eng kam ulush Bo`z (0,4 %), Ulug`nor (0,5 %), Buloqboshi (0,6 %), va Paxtaobod (0,7 %) tumanlariga to`g`ri keladi.



Shuni ta`kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 119,5 % ga), Honobod (110,5 % ga) shaharlarida, Asaka (136,8 % ga), Jalaquduq (118,0 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

4-diagramma



**Andijon viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

Ya. Atahanov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-57